



(dastlabki ma'lumotlar)

## Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik

2020-yil yanvar - iyun

2020 - yilning yanvar - iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi **69,4 %**ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **10,9** birlikni tashkil qildi.

2020 - yilning yanvar - iyunida **3184** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **7,5** foizga kam.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda -1266 ta, sanoatda - 716 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 519 ta, qurilishda - 270 ta, yashash va ovqatlanishda - 119 ta, tashish va saqlashda - 65 ta tashkil etilgan.

### 2020-yil yanvar - iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Savdo  
39,8 %



Sanoat  
22,5 %



Qurilish  
8,5 %



Qishloq, o'rmon va  
baliq xo'jaligi  
16,3 %



Yashash va  
ovqatlanish  
3,7 %



Tashish va saqlash  
2,0 %

## Yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'Ichov birligi	2019-y.	2020-y.	(+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	20098	23987	3889
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	3444	3184	-260
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</i>				
YaHM	%	72,9	69,4	-3,5
Sanoat	%	58,3	43,7	-14,6
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	%	97,2	97,3	0,1
Investitsiya	%	43,0	72,7	29,7
Qurilish	%	96,1	86,3	-9,8
Savdo	%	89,7	90,0	0,3
Xizmatlar	%	66,7	64,0	-2,7
Yuk tashish	%	95,5	95,0	-0,5
Yuk aylanmasi	%	92,0	95,9	3,9
Yo'lovchi tashish	%	97,7	98,5	0,8
Yo'lovchi aylanmasi	%	98,0	96,2	-1,8
Eksport	%	82,9	63,5	-19,4
Import	%	84,7	74,2	-10,5



### 2020-yilning yanvar - iyunida kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari. %da




2020-yilning yanvar – iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha eng ko'p Namangan shahrida - 648 ta, Pop tumanida - 327 ta, Namangan tumanida - 276 ta, Uychi tumanida - 260 ta, To'raqo'rg'on tumanida - 257 ta, Chust tumanida - 243 ta, Mingbulxoq tumanida - 214 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko'rsatkich Uchqo'rg'on tumanida 182 tani tashkil etgan.

## Tumanlar va shaharlar bo'yicha bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	Yanvar–iyun 2019 - yil	Yanvar–iyun 2020 - yil	(+;-)
<b>Namangan viloyati</b>	<b>3444</b>	<b>3184</b>	<b>-260</b>
Namangan sh. <i>tumanlar:</i>	967	648	-319
Mingbuloq	163	214	51
Kosonsoy	239	205	-34
Namangan	209	276	67
Norin	205	195	-10
Pop	294	327	33
To'raqo'rg'on	207	257	50
Uychi	252	260	8
Uchqo'rg'on	259	182	-77
Chortoq	178	183	5
Chust	296	243	-53
Yangiqo'rg'on	175	194	19



**2020 - yil yanvar - iyun holatiga ko'ra yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da**




2020 - yil yanvar - iyun oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Namangan shahri - 20,4 %, Pop tumani - 10,3 %, Namangan tumani - 8,7 %, Uychi tumani - 8,2 %, To'raqo'rg'on tumani - 8,1 %, Chust tumani - 7,6 %, Mingbuloq tumani - 6,7 %ga tegishli.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun	(+;- )
Jami	3444	3184	-260
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	212	519	307
Sanoat	960	716	-244
Qurilish	270	270	0
Savdo	1444	1266	-178
Tashish va saqlash	124	65	-59
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	190	119	-71
Axborot va aloqa	38	47	9
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	29	41	12
Boshqa faoliyat turlari	177	141	-36


**Ma'lumot uchun:** 2020-yilning yanvar – iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




### Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tumanlar va shaharlar, birlikda


	2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun	Farqi (+;-)
Namangan shahri	967	648	-319
Pop tumani	294	327	33
Namangan tumani	209	276	67
Uychi tumani	252	260	8
To'raqo'rg'on tumani	207	257	50
Chust tumani	296	243	-53

2020-yil yanvar – iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Namangan shahrida – 648 taga yetdi.




### Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tumanlar va shaharlar, birlikda






**Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar - iyun holatiga ko'ra\***




2020 - yilning yanvar - iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Namangan tumanida 13,6 birlik, Namangan shahrida 13,5 birlik, Mingbuloq tumanida 12,7 birlik, Chust tumanida 11,7 birlik, Uchqo'rg'on tumanida 10,5 birlik, Chortoq tumanida 10,1 birlikni tashkil etgan. To'raqo'rg'on tumanida esa, ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 8,7 birlikka to'gri keldi.

\* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




**2020-yilning yanvar-iyunida tumanlar va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\***



\* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

## Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)




Bundan ko'rinish turibdiki, Namangan tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu tumanda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, To'raqo'rg'on tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxona soni o'zgarmagan va eng past darajaga tushib ketdi.


### Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini pasayish dinamikasi, yanvar - iyun holatiga ko'ra, %da

2020-yilning yanvar - iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 69,4 %ni tashkil qildi. (2019 yilning yanvar - iyunida 72,9 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.



### Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan %da)



**2020-yilning yanvar - iyunida kichik tadbirkorlikni  
tumanlar va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy  
tarmoqlaridagi ulushi, (%)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
<b>Namangan viloyati</b>	<b>43,7</b>	<b>86,3</b>	<b>64,0</b>	<b>72,7</b>
Namangan sh. <i>tumanlar:</i>	56,7	64,3	32,2	68,0
Mingbuloq	10,5	100,0	95,6	59,1
Kosonsoy	98,4	100,0	95,1	95,9
Namangan	40,7	100,0	95,4	74,1
Norin	21,4	100,0	94,9	90,8
Pop	47,7	70,4	83,7	65,8
To'raqo'rg'on	16,6	100,0	83,6	40,9
Uychi	51,9	97,5	97,6	91,7
Uchqo'rg'on	18,4	100,0	94,5	94,7
Chortoq	100,0	96,1	95,0	84,5
Chust	64,3	100,0	93,3	94,0
Yangiqo'rg'on	100,0	100,0	97,9	94,0

Tumanlar va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

**Sanoatda-**

Yangiqo'rg'on,  
va Chortoq  
(100,0 %),  
Kosonsoy (98,4 %),  
Chust (64,3 %)  
tumanlarida.

**Qurilishda-**

Mingbuloq, Kosonsoy,  
Namangan, Norin,  
To'raqo'rg'on,  
Uchqo'rg'on,  
Yangiqo'rg'on va Chust  
(100,0 %) tumanlarida.

**Xizmatlarda-**

Yangiqo'rg'on (97,9 %),  
Uychi (97,6 %),  
Mingbuloq (95,6 %),  
Namangan (95,4 %),  
Kosonsoy (95,1 %),  
Chortoq (95,0 %),  
Norin (94,9 %),  
Uchqo'rg'on (94,5 %),  
Chust (93,3 %),  
tumanlarida.

## Kichik tadbirkorlik subektlari tomonidan 2020-yilning yanvar-iyunida

- 
- 1 Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2061,5 mlrd. so'm (jami sanoat ishlab chiqarishning 43,7% i) ni tashkil qildi;
  - 2 3667,3 mlrd.so'mlik investitsiyalar (umumiyligi investitsiyalar hajmining 72,7% i) o'zlashtirildi va 2019 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 133,0 %ni tashkil qildi;
  - 3 1640,7 mlrd.so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 86,3% i) bajarildi va 2019 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 97,7 %ni tashkil qildi;
  - 4 2499,1 mlrd.so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (viloyatdagi jami xizmatlar hajmining 64,0 %i), 2019 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 97,2 %ni tashkil qildi;
  - 5 Chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 90,0 %i yoki 5017,5 mlrd.so'mi (o'sish sur'ati 100,4 %ni tashkil qildi) shakllantirildi;
  - 6 119,5 mln. AQSh dollari(umumiyligi eksport hajmining 63,5%) miqdorida mahsulotlar (ish va xizmatlar) eksport qilindi;
  - 7 Avtomobil transporti yuk aylanmasining 2,7 % ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 95,9 %i) ko'payishi ta'minlandi;
  - 8 Yo'lovchi aylanmasi esa 10,4 % ga (umumiyligi yo'lovchi aylanmasining 96,2 %i) kamaydi;




**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, xizmatlar) eksportining jami eksportdag'i ulushi, % da**



2020 - yil yanvar - iyun oylarida tumanlar va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushini Yangiqo'rg'on tumanida - 100,0 %, Kosonsoy tumanida - 98,9 %, Chortoq tumanida - 97,9 %, Pop tumanida - 64,4 %, Namangan tumanida - 63,7 %, Uychi tumanida - 62,4 %ni, eng past ko'rsatkich Uchqo'rg'on tumanida - 33,4 %ni tashkil etdi.



**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da**




2020-yil yanvar - iyun oylarida tumanlar va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlarida - 100,0 %, Kosonsoy tumanida - 99,0 %, Pop tumanida - 98,2 %, Uychi tumanida - 91,0 %, Norin tumanida - 88,7 %, To'raqo'rg'on tumanida - 83,9 %.

Eng past ko'rsatkich Namangan tumanida - 32,0 %ni tashkil etdi.



**2020-yilning yanvar - iyunida tumanlar va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi**





Tumanlar va shaharlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Namangan shahri (954,0 mlrd. so'm), Namangan (177,5 mlrd. so'm), Kosonsoy (159,3 mlrd. so'm), Uychi (149,9 mlrd. so'm) va Chust (133,9 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Mingbuloq tumanida (35,2 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.





## 2020-yil yanvar - iyun holatiga ko'ra jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning tumanlar va shaharlar bo'yicha ulushi, % da




Tumanlar va shaharlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Yangiqorgon va Chortoq tumanlarida - 100,0 %, Kosonsoy tumanida - 98,4 % va Chust tumanida - 64,3 % ni tashkil etdi.

Aksincha, Mingbuloq tumanida (10,5 %) kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.




**2020-yilning yanvar - iyunida tumanlar va shaharlar bo`yicha kichik tadbirdorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati**



Tumanlar va shaharlar bo`yicha eng ko`p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Namangan shahri - 2260,8 mlrd. so'm (2019 yilning yanvar – iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 101,6 %), Pop tumani - 377,6 mlrd. so'm (104,7 %), Kosonsoy tumani - 355,1 mlrd. so'm (101,1 %), Norin tumani - 331,7 mlrd. so'm (97,9 %), To'raqo'rg'on tumani - 276,9 mlrd. so'm (99,6 %) va Yangiqo'rg'on tumani - 268,5 mlrd. so'm (97,1 %) hissasiga to'g'ri keladi.



## 2020-yilning yanvar - iyunida tumanlar va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Tumanlar va shaharlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Namangan shahri - 390,5 mlrd. so'm (2019 yilning yanvar - iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 97,1%), Kosonsoy tumani 205,3 mlrd. so'm (143,3 %), Uychi tumani - 186,9 mlrd. so'm (106,3 %), Namangan tumani - 150,6 mlrd. so'm (98,3 %), Chust tumani - 108,8 mlrd. so'm (126,5 %), To'raqo'rg'on tumani - 107,5 mlrd. so'm (116,2 %) hamda Chortoq tumaniida - 97,2 mlrd. so'm (111,2 %) qayd etildi.





**2020-yilning yanvar - iyunida tumanlar va shaharlar  
bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da  
xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati**




Tumanlar va shaharlar bo'yicha eng ko'p xizmatlar hajmi Namangan shahri - 598,0 mlrd. so'm (2019 yilning yanvar - iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 83,9 %), Chust tumani - 198,2 mlrd. so'm (101,7%), To'raqo'rg'on tumani - 190,3 mlrd. so'm (102,4 %), Pop tumani - 187,8 mlrd. so'm (101,5 %), Yangiqo'rg'on tumani - 182,0 mlrd. so'm (101,6 %), Chortoq tumani - 181,0 mlrd. so'm (105,5 %) hissasiga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha 2020-yil II chorak yakunlariga ko`ra, mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumi mavjudlari bo`yicha tanlanma kuzatuvlar o`tkazildi. Unda **907** ta respondentlar ishtirok etdi.

## 2020 - yil II chorak bo`yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha taqsimlanishi\*, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 3,5 % (32 ta), sanoatda – 23,5 % (213 ta), qurilishda – 9,9 % (90 ta), savdoda – 34,4 % (312 ta), xizmatlar sohasida – 28,7 % (260 ta) ni taskil etdi.


\*oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lган kichik korxona va mikrofirmalar bo`yicha.



**2020 - yil II chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**




**2020 - yil II chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da**




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020 - yilning II choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan qulay iqtisodiy vaziyat qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (6,8 punkt) sohasidan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha pasaydi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan korxonalarining ulushi barcha faoliyat turlari bo'yicha pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning II choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda barcha sohada iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.



### Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 – 2020 yillarda II chorakdagi iqtisodiy vaziyatini baholash, %da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020 - yilning II choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha oshdi.


### Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarning 2019 - 2020 yillarda II chorakdagi iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda baholanishi, % da






2020-yil II choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 159 ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari – 35 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonining 22,0 %), qurilish – 14 ta (8,8 %), savdo – 65 ta (40,9 %) va xizmatlar – 20 ta (12,6 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi – 25 ta (15,7 %).

### 2020 - yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da






**2020 - yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**




**2020 - yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkill etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, % da**



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilning II choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 24,7 punktga, sanoatda 9,4 punktga, qurilishda 6,6 punktga oshdi. Boshqa faoliyat turlari bo'yicha pasayish kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning II choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 21,5 punktga, qurilishda 1,7 punktga oshdi. Boshqa faoliyat turlari bo'yicha kamayishi kuzatildi.


Joriy yilning II choragida o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qurilishda 8,3 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatini kuzatuvi natijalariga ko'ra, 2020-yilning II choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan korxonalar ulushi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagisi iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha oshdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 5,0 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 4,0 punktga, sanoatda 2,9 punktga ko'paydi.



### 2019 - 2020 yil II choragida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da





**Namangan viloyati statistika boshqarmasi  
Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,  
tadbirkorlikni rivojlantirish  
statistikasi bo'limi**  
Tel.: (0369) 227-84-76